FARG‘ONA VILOYATI QO‘QON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 20-dekabr | 337-11-166-Q/24 | Qo‘qon shahar hokimligi

Qoʻqon shahar, Movarounnahr koʻchasi hududiga 3.27 “toʻxtash taqiqlangan” taqiqlovchi yoʻl belgisi oʻrnatishga ruxsat etish toʻgʻrisida

Davlat ahamiyatidagi 4R-17e “Qoʻqon shahri aylanma avtoyoʻli” avtomobil yoʻlining Qoʻqon shahar Movarounnahr koʻchasi hududidan oʻtgan 2 km PK+200 qismi yoʻlning chap va o‘ng tomoniga harakat xavfsizligini taʼminlash, haydovchilarga qulaylik yaratish va tirbandliklarni oldini olish maqsadida bir dona 3,27 “toʻxtash taqiqlangan” yoʻl belgisini oʻrnatish toʻgʻrisida Fargʻona yoʻllaridan muntazam foydalanish unitar korxonasi davlat muassasasining 2024-yil 15-noyabr kunidagi 02/645-sonli hamda Qoʻqon shahar IIB YHXBning 2024-yil 15-noyabr kunidagi 36/12-7624-sonli aloqa xatlarini koʻrib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Fargʻona yoʻllardan muntazam foydalanish unitar korxonasi davlat muassasasining 2024-yil 15-noyabr kunidagi 02/645-sonli hamda Qoʻqon shahar IIB YHXBning 2024-yil 15-noyabr kunidagi 36/12-7624-sonli aloqa xatlari inobatga olinsin.

2. Qoʻqon shahar, Movarounnahr koʻchasi hududidan oʻtgan 2 km PK+200 qismi yoʻlning chap va o‘ng tomoniga bir dona 3,27 “toʻxtash taqiqlangan” yoʻl belgisini oʻrnatishga ruxsat etilsin.

3. Farg‘ona yo‘llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi davlat muassasasi (O.Nazirov) ushbu yo‘l belgisini o‘rnatish chorasini ko‘rsin.

4. Qo‘qon shahar IIB YXHB (D.Abduraxmonov)ga mazkur avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorni “Muloqot” TV (X.Shermatov), “Qo‘qon sadosi” ro‘znomasi tahririyati (M.Sultonov), shahar hokimligi Axborot xizmati (U.Norboyev)ga ommaviy axborot vositalarida yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Suleymanov zimmasiga yuklatilsin.

Qo‘qon shahar hokimi **M.Usmonov**